

SOTISH UCHUN MO'ljALLANGAN UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR

Niyatov Jaxongir Abdugappor o'g'li

SamISI mustaqil tadqiqotchisi

Anatatsiya: Xalqaro standartlar talablariga muvofiq sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan uzoq muddatli aktivlar (UMA) moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aylanma mablag'lar tarkibida alohida aks ettirilishi ta'kidlangan. Ushbu standartning maqsadi sotishga mo'ljallangan aktivlarni hisobga olish tartibini aniqlashtirish, shuningdek, tugatilayotgan faoliyat to'g'risida axborotlarni ochiqlash bo'lib hisoblanadi.

Kalit so'zlar: uzoq muddatli aktivlar, tugatilgan faoliyat, balans qiymati, standart talab, foyda, zararlar, tasniflangan uzoq muddatli aktiv, adolatli (haqqoniy) qiymat, tugallangan faoliyat, Sotish bo'yicha operatsiyalar, pul mablag'lari.

5-son MHXS "Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilgan faoliyat" deb nomlangan.

Ushbu standartda keltirilgan asosiy qoidalar to'g'risida to'xtalamiz. Ushbu standartning maqsadi sotishga mo'ljallangan aktivlarni hisobga olish tartibini aniqlashtirish, shuningdek, tugatilayotgan faoliyat to'g'risida axborotlarni ochiqlash bo'lib hisoblanadi.

Xususan, standart talab etadi:(a) Sotishga mo'ljallangan sifatida tasniflashning mezonlariga javob beradigan aktivlar ikkita miqdordan eng kichigi bo'yicha baholanadi: balans qiymati va sotish bilan bog'liq xarajatlarni chegirgandan keyingi adolatli qiymati. Bunday aktivlarga amortizatsiya hisoblash to'xtatiladi;

(b) sotishga mo'ljallangan sifatida tasniflashning mezonlariga javob beradigan aktivlar to'g'risida axborotlar balansning yuzasi qismida alohida, tugatilgan faoliyat natijalari esa foyda yoki zararlar to'g'risidagi hisobotda taqdim etilishi shart.

Mazkur MHHSning baholash shartlari qo‘yidagi aktivlarga (qaysiki keltirilgan MHXSlar orqali qamrab olinadi) nisbatan alohida aktivlar sifatida yoki hisobdan chiqarish guruhining qismi sifatida qo‘llanilmaydi:

- (a) muddati uzaytirilgan soliq aktivlari (12-son BHXS «Foyda solig‘i»);
- (b) xodimlar daromadlaridan yuzaga keladigan aktivlar (19-son BHXS «Xodimlarni rag‘batlantirish»);
- (c) 9-son MHXS «Moliyaviy instrumentlar»ning qo‘llash doirasidagi moliyaviy aktivlar;
- (d) 40-son BHXS «Investitsiyaviy mulk»dagi haqqoniy qiymat bo‘yicha hisobga olish modeliga muvofiq hisobga olinadigan uzoq muddatli aktivlar;
- (e) 41-son BHXS «Qishloq xo‘jaligi»ga muvofiq sotish xarajatlari chegirilgandan keyingi haqiqiy qiymatda baholanadigan uzoq muddatli aktivlar;
- (f) 4-son MHXS «Sug‘urta shartnomalari»da ta’riflangan sug‘urta shartnomalari asosida shartnomaviy huquqlar.

Tashkilot uzoq muddatli aktivlarni (yoki chiqarilayotgan guruhni) sotish uchun mo‘ljallangan deb tasniflashi shart, agarda uning balans qiymati uni kelgusida yana foydalanish hisobidan emas asosiy tarzda uni sotish operatsiyalari hisobidan qoplanilsa.

Sotish uchun mo‘ljallangan deb tasniflangan uzoq muddatli aktiv – bu uzoq muddatli aktiv bo‘lib, uning balans qiymati undan foydalanish hisobidan emas, balki asosiy tarzda uni sotish operatsiyalari hisobidan qoplaniladi.

Adolatli (haqqoniy) qiymat (fair value) – bu baholash sanasida bozor qatnashchilari o‘rtasida o‘z xohish va irodasiga asoslangan operatsiyani o‘tkazishda aktivlarni sotishdan olingan yoki majburiyatlarni uzatishda to‘langan baho.

Sotish bo‘yicha xarajatlar (costs to sell) – bu aktivlarning chiqib ketishi bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar (moliyaviy xarajatlar va foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlardan tashqari)

Pul mablag‘larini yuzaga keltiruvchi birlik (cash-generating unit) – bu aktivlarning eng kichik identifikatsiyalanadigan guruhi bo‘lib, qaysiki boshqa aktivlar

yoki aktivlar guruhidan pul oqimlariga salmoqli bog‘liq bo‘lmagan holda pul oqimlarini yuzaga keltiradi.

Kompaniyaning komponenti (component of an entity) - bu biznes faoliyati nuqtai-nazaridan va moliyaviy hisobot maqsadlarida kompaniyaning boshqa faoliyatlaridan aniq ajratilgan operatsiyalar va pul oqimlari.

Tugallangan faoliyat (discontinued operation) – bu kompaniyaning komponenti bo‘lib, qaysiki chiqib ketgan, yoxud sotish uchun mo‘ljallangan deb tasniflangan va

- faoliyatning alohida salmoqli yo‘nalishi yoki kompaniya faolitining hududi (iqtisodiy-tarmoq yoki geografik segment);

- sotishning yagona rejasi doirasida chiqib ketadi; yoki

- faqat keyinchalik davomiy sotish maqsadlarida xarid qilib olingan sho‘ba kompaniyalar.

Chiqib ketayotgan guruh – bu aktivlar guruhi bo‘lib, qaysiki sotishga mo‘ljallangan yoki boshqacha yo‘l bilan yagona operatsiya natijasida chiqib ketadi, shuningdek mazkur aktivlar bilan bog‘liq va ushbu operatsiyani amalga oshirishda uzatiladigan majburiyatlar

Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlarni tan olish va davomiy baholash

Xalqaro standartlar talablariga muvofiq sotish uchun mo‘ljallangan deb tasniflangan uzoq muddatli aktivlar (UMA) moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda aylanma mablag‘lar tarkibida alohida aks ettirilishi ta’kidlangan. Shu bois, sotish uchun mo‘ljallangan deb tasniflangan UMAlarni tan olish, baholash va moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalarini chuqur tadqiq etish, ularni joriy qilish va qo‘llash bo‘yicha uslubiy tartiblarni ishlab chiqish o‘ta dolzarb hisoblanadi. 5-son MHXS “Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat” standartida “Sotish uchun mo‘ljallangan deb tasniflangan uzoq muddatli aktiv – bu uning balans qiymati undan foydalanish hisobidan emas, balki asosiy tarzda uni sotish operatsiyalari hisobidan qoplaniladi. Xususan, standart talab etadi:

(a) sotishga mo'ljallangan sifatida tasniflashning mezonlariga javob beradigan aktivlar ikkita miqdordan eng kichigi bo'yicha baholanadi: balans qiymati va sotish bilan bog'liq xarajatlarni chegirgandan keyingi adolatli qiymati. Bunday aktivlarga amortizatsiya hisoblash to'xtatiladi;

(b) sotishga mo'ljallangan sifatida tasniflashning mezonlariga javob beradigan aktivlar to'g'risida axborotlar balansning yuzasi qismida alohida, tugallanayotgan faoliyat natijalari esa foyda yoki zararlar to'g'risidagi hisobotda taqdim etilishi shart.

Sotish bo'yicha operatsiyalar bitta uzoq muddatli aktivni boshqa uzoq muddatli aktivga almashtirishni ham ko'zda tutishi mumkin, faqat bunda 16- son BHXS "Mulq, bino, mashina va asbob-uskunalar" standartiga muvofiq bunday almashtirish tijorat xususiyatiga ega bo'lishi shart. 5-son BHXSga muvofiq sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlarlar deb tan olinishining mezonlari ham keltirilgan. Ularni quyidagi chizmada aks ettirishimiz mumkin bo'ladi (9.2-rasm).

Agar tashkilot uzoq muddatli aktivni davomiy qayta sotish yoki chiqarib yuborish uchun xarid qilgan bo'lsa, uni shu xarid sanasidan e'tiboran uzoq muddatli aktiv sotishga mo'ljallangan sifatida tasniflanishi talab etiladi, faqat bunda standartning 8-bandida qo'yilgan sotilishi yoki chiqib ketishi uchun bir yilgacha qo'yilgan muddat bajarilishi shart.

Uzoq muddatli aktiv sotish uchun mo'ljallangan deb hisoblanadi, agarda korxonada mulkdor foydasiga taqsimlanishi amalga oshirilsa. Buning uchun aktiv zudlik bilan sotish uchun joriy holatda mavjud bo'lishi va taqsimlanishining yuqori ehtimoli mavjud bo'lishi shart. Korxonada foydalanishi to'xtatilishi shart bo'lgan uzoq muddatli aktivni sotish uchun mo'ljallangan sifatida tasniflashi shart emas, chunki uning balans qiymati asosan davom ettirilayotgan foydalanish hisobidan qoplaniladi. Korxonada sotish uchun mo'ljallangan sifatida tasniflagan uzoq muddatli aktivlar (chiqib ketayotgan guruhi) balans qiymati va sotish uchun xarajatlarni chegirgandan keyingi adolatli qiymatidan eng kichigi bo'yicha baholanishi shart.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Уразов К.Б. Молиявий ҳисоб ва ҳисобот. Ўқув қўлланма.- Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020. 408 бет
2. Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари: Олий ўқув юртлири магистратура мутахассисликлари учун дарслик. – Тошкент: «IQTISOD-MOLIYA», 2019. – 584-б. <https://www.academia.edu>
3. С. Ташназаров Молиявий бухгалтерия ҳисоби 1 [Матн]: дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ нашриёти, 2023 - 580 бет
4. Toshmatov N., Ismanov I., Buzurkhanov S. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik. Т.:-“Sano-standart” nashriyoti, 2019. 560 bet
5. Hasanov B.A., Hashimov A.A., Muhametov A.B., Abduvohidov A.A. Buxgalteriya hisobi. Darslik.- Т.: ”Iqtisodiyot dunyosi” , 2021. 992 bet
6. Farhodovich, Boronov Bobur, and Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li. "MECHANISMS FOR USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES IN THE ELECTRONIC GOVERNMENT SYSTEM OF UZBEKISTAN AND THEIR EFFECTIVENESS." *Лучшие интеллектуальные исследования* 59.2 (2025): 285-292.
7. Боронов, Бобур, and Заррух Мухаммадиев. "ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЪЕМА УЧЕТА КАПИТАЛЬНЫХ ВЛОЖЕНИЙ В ХОЗЯЙСТВУЮЩИЕ СУБЪЕКТЫ." *Передовая экономика и педагогические технологии* 2.2 (2025): 444-50.